



INKLYUZIV TA'LIM SAMARODORLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI

Berdiyeva S.E.

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: inklyuziv ta'lim, maxsus ta'lim, maxsus yordamga muhtoj bolalar, integratsiya ta'lim, inklyuziya, nuqsonlar.

Ключевые слова: инклюзивное образование, специальное образование, дети с особыми потребностями, интегрированное образование, инклюзия, инвалидность.

Key words: inclusive education, special education, children with special needs, integrated education, inclusion, disabilities.

Kirish. Respublikamizda bolalarni ijtimoiy himoya qilish, jismoniy imkoniyatlari cheklangan shaxslarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish tizimi ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni hamda 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarorlarining qabul qilinishi har bir bolaning jamiyatda o'z o'rnini topish yo'lidagi istiqbolli sa'y-harakatlaridan biridir. Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi qarori inklyuziv ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, amaliyotda uchraydigan muammolarning yechimlarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoevning BMT Inson huquqlari bo'yicha Kengashi 46-sessiyasidagi nutqida strategik yo'nalishlar, jumladan, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konventsiyani ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Butun dunyoda qariyb 1 milliardga yaqin nogironligi bo'lgan shaxslar borligi haqida o'ylab, fikr yuritsak bu nihoyatda ahamiyatli tashabbus ekaniga amin bo'lamiz. O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimini keng joriy



qilishga qaratilgan chora tadbirlar, xalqaro va milliy ish tajribalarini o‘rganish bo‘yicha davlat va nodavlat hamkorlik loyihalari amalga oshirilib kelinmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Inklyuziv ta’lim (ingliz tilidan olingan bo‘lib, inclusive, inclusion–uyg‘unlashmoq, uyg‘unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma’nolarini bildiradi) nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni (diskriminasiyani) bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko‘ra nogiron bo‘lgan) o‘smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat’iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo‘shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir. Inklyuziv ta’limning siyosati turli xil ehtiyojli bolalarni ta’lim olishini qo‘llaydi va yutuqqa erishishiga yordam beradi hamda yaxshi hayot qurishiga imkon yaratadi.

Inklyuziv ta’lim turli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdagi dars berishga yondashadigan ta’limni ishlab chiqishni amalga oshiradi. Agarda inklyuziv ta’limni tadbqiq etishda dars berish, o‘qitish bir muncha samarali va unumli bo‘lsa unda nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar balki barcha bolalar uchun bu foydali bo‘ladi. Inklyuziv ta’lim maktablari bolalarning bilim olish uchun shaxsiy huquqlarini himoyalaydi. Bunday yondashuv diskriminatsiyani bartaraf etadi, kamaytiradi chunki bolalar bir birlari bilan muloqot qilish jarayonida o‘zlarining o‘qitilish jarayonida turli ehtiyojlarga ega individum ekanliklarini anglaydilar.

Sharqning mashhur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniylarning tarbiyaning maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta’limning ta’siri to‘g‘risidagi qarashlari inklyuziv ta’lim rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi.

Forobiy o‘z asarlarida bilish shakllari, insonning ruhiy holati, jon va tananing o‘zaro munosabati, mantiqiy fikrlash to‘g‘risidagi mulohazalarini bildiradi. Uning aytishicha, insonning bilish, ruhiy qobiliyatlarini miya boshqaradi, yurak esa barcha a’zolari hayot uchun zarur bo‘lgan qon bilan ta’minlovchi markaz vazifasini bajaradi. Forobiy «Ilm va san’atning fazilatlarini haqida» kitobida tabiatni bilishning cheksizligini, bilim- bilmaslikdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga qarab borishni uqtiradi. Inson voqelikni idrok, sezgi, xotira, tasavvur, mantiqiy tafakkur, aql, nutq va usullar orqali bila oladi. Olim hissiy va aqliy bilish mavjudligini, ular bir-biridan farq qilishini ham aytib o‘tadi.

Sharqda “Shayx-ur rais” unvoni bilan mashhur bulgan Abu Ali ibn Sinoning “Tadbir ul-manozil” asarida bayon etilgan o‘qitish usullari hozirgi davr ta’lim tamoyillariga mos kelishi ham nazariy, ham amaliy jihatdan qimmatlidir:

«Bola baquvvat bo‘lib, so‘zlashuv nutqini yaxshi tushuna boshlangandan so‘ng u savod o‘rganishga qobil bo‘ladi, shundan so‘ng savodga o‘rgata borish mumkin».

Avvalambor, axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi egallagan irodali, dono, g‘amxo‘r va dinga ishongan o‘qituvchi va tarbiyachi tanlash kerak bo‘ladi. U sog‘lom, tozalikni sevuvchi, sofdil va odamlarga yaxshi munosabatda bo‘la oladigan tarbiyachi bo‘lishi kerak». Ibn Sino talabaga bilim berishda o‘qituvchining pedagogik mahorati va mas‘uliyatli burchi masalasiga alohida to‘xtalib, o‘qituvchi bolalarga bilim berishga kirishishdan avval, ularning xulq-atvorini o‘rganishi va bilimlarini tekshirib ko‘rishi, qiziqishi, nimaga qodir ekanligini aniqlashi, so‘ngra unga hunar yoki ilm turini egallashni tavsiya etishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, o‘qituvchiga shunday yo‘l-yo‘riqlar beradi:

- bolalar bilan muomalada bosiq-jiddiy bo‘lish, berilayotgan bilimlarning talabalar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e‘tibor berish;
- ta‘limda turli o‘qitish usullari va shakllaridan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish, fanga qiziqitira olish;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;
- bilimlarni tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish.

Har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishish zarurligini ta‘kidlab, bolalarni alohida-alohida o‘qitishdan ko‘ra jamoa, sinf tartibida o‘qitishni afzal deb biladi va bu uslubning ustunligi quyidagilardan iboratligini ta‘kidlaydi: «O‘quvchilar o‘qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O‘z bilimlari bilan g‘ururlanadilar, bir-birlarining bilimlariga havas qiladilar. G‘urur va o‘ziga e‘tibor tarbiyalanuvchilarni bir-birlaridan orqada qolmaslikka undaydi.

O‘zbekistonda inklyuziv ta‘limni ilk asoschilari va olimlari. 1996-yilda xorijiy delegatsiya mamlakatimizga kelib, ilk muzokaralarni o‘tkazgan. Ushbu muzokaralar A.Avloniy nomidagi XTTXQTMOI Maxsus ta‘lim kafedrası va RTM maxsus ta‘lim bo‘limi va Nizomiy nomidagi TDPU Defektologiya fakulteti professor o‘qituvchilari ishtirokida o‘tkazilgan.

O‘zbekistonlik olimi R.Sh.Shomahmudova mamlakatimizga boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik orqali ilk bor Angliya tajribasini olib kirishga muvaffaq bo‘lgan. Olima rahbarligida RTM da “Inklyuziv ta‘lim”ga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya tashkil etilgan.

YUNICEF xalqaro tashkiloti va XTB hamkorligida qator loyihalar amalga oshirilgan. Ushbu loyihalarning koordinatorlari sifatida O‘zbekistonlik olimlar professor L.Mo‘minova dotsent U.Fayziyevlar ish olib borganlar.



Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda. "Salamanka deklaratsiyasiga muvofiq har bir o'quvchining tafovut, xususiyatlarini qo'llab quvvatlovchi va ma'qullovchi islohot sifatida qarashadi. Uning maqsadlari, jinsi, irqi, madaniyati, ijtimoiy millati, dini, individual imkoniyat va qobiliyatidagi tafovutlar oqibatida yuzaga keladigan ijtimoiy segregatsiyaga yo'l qo'ymaslik. Biroq bu konsepsiya universal foydalanish uchun yaroqsiz bo'lib chiqdi. Dunyo bo'yicha maktablarda inklyuziv ta'limga ko'pincha umumta'lim maktablarida nogironlarni o'zlarining tengdoshlari bilan birga ta'lim olish deb qaraladi" (Judi Kugelmas).

Biroq inklyuziv ta'limning mazmun mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda yetarli emas. "Inklyuziv" va "integratsiyalashgan" atamaları ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. Biroq falsafada ushbu tushunchalar orasida juda katta farq bor. Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim muassasalari tarkibiga qamrab olinishi jahon miqyosida "inklyuziv" yoki "integratsion" ta'lim atamaları bilan ataladi. "Integratsiya" atamasini aniqlash maqsadida ushbu tushunchaning ta'rifini bergan G.M. Kajdasparovning "Pedagogicheskiy slovar" lug'atiga murojaat qilamiz. Unda "guruhlar integratsiyasiga", "guruhda shaxslararo munosabatlarni tartibga solish" sifatida qaraladi shuningdek, jamoada faqatgina insonparvrlilik munosabatlarni va mazkur guruhda ijobiy jamoatchilik fikrini yaratilishi bilan integratsiyani amalga tadbiiq etish mumkin deb ta'kidlanadi.

UNICEF inklyuziv ta'lim O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalasi bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi.

Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yoki imkoniyati cheklangan bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziya integratsiyadan ko'ra ko'proq ekanligini ta'kidlash kerak, bu nafaqat ta'limga, balki har bir kishining hayotida istisnosiz, har bir insonning kuchli va zaif tomonlarini hisobga olgan holda, bu farqlarni tan olishdir, bu farqlar haqidagi fikrlarni boyitish tinchlik va jamiyatning



tabiiy hodisasi sifatida, bu ta'lim sohasidagi doimiy qo'llab-quvvatlash va o'zgarishlar tufayli samarali ta'lim olish imkoniyatidir. inklyuziv ta'lim sharoitlarida surdopedagog, oligofrenopedagog va tiflopedagolar faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Bunda asosiy masala sog'lom bolalar bilan imkoniyati cheklangan bolalarning birgalikda ta'lim-tarbiya olishlari samaradorligini ta'minlash va oshirib borish hisoblanadi va unga asosiy e'tibor qaratish lozim hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2022). Nutq ustida ishlashning tizimli yondashuvlari orqali eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga tayyorlash. *Pedagogik ta'lim innovatsiyon klasteri*, 1(1), 350-352.
2. Ibadullayeva, S. N., Masaliyeva, S. (2022). Inklyuziv ta'lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirish omillari. *Inklyuziv ta'lim*, 1(2), 111-113.
3. Berdiyev B. R. "Matematika o'qitish metodikasi". *Darslik II-kitob. Qarshi. "Fan va ta'lim" nashriyoti.* -2021. . – 260 b.
3. Berdiyeva S.E. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini shakllantirishning psixologik asoslari. *Научный импульс. Международный современный научно-практический журнал.* 2023 №8 (100)
4. Berdiyeva S.E. Pedagogik diagnostika olib borish metodlarining ahamiyati va mazmuni. *CAJECES. Central Asian journal of education and computer sciences.* 2023 volume 2, issue 2.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim va uning mazmun mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tilgan. Inklyuziv ta'lim atamasi, alloma va olimlarning fikrlari orqali bugungi kunda inklyuziv ta'limni amalga oshirishda bo'lajak o'qituvchilar e'tibor berishi hamda amal qilishi kerak bo'lgan jihatlari qisqacha yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье кратко обсуждаются инклюзивность и ее содержание. Термин инклюзивное образование, аспекты, на которые будущие учителя должны обратить внимание и которым следует следовать при реализации инклюзивного образования сегодня, были освещены через мнения ученых и ученых.

SUMMARY

In this article, inclusiveness and its content are briefly discussed. The term inclusive education, the aspects that future teachers should pay attention to and follow in the implementation of inclusive education today have been highlighted through the opinions of scholars and scientists.